

ISLOMDA NASL NASAB ILMINI O'RGANISHNING AHAMIYATI

Yahyo Mambetov

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik yo'nalishi, 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muqaddas islom dinimizda nasl nasabning muhumlighi va oilalarning tinchligi va faravonligini ta'minlashdagi ahamiyati haqida so'z boradi. Islomda nasab (qavm, avlod) muhim ijtimoiy va diniy jihatlarga ega bo'lib, insonning o'z kelib chiqishini, nasl-nasabini, oilasini va jamiyatdagi o'rni bilan bog'liqdir. Qur'oni karim va hadisda nasab, insonning shaxsiy va diniy hayotida o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Nasabning muhimligi, avvalo, har bir insonning o'z o'rnini va mas'uliyatini bilishiga yordam beradi.*

Nasab, shuningdek, oila tizimini mustahkamlashda, hurmat va adolatni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Islomda oila, din va jamiyatning mustahkam poydevori sifatida qabul qilinadi va nasabning to'g'riligi oilaviy munosabatlar, huquqlar va mas'uliyatlar ustida katta ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *Nasl-nasab ilmi, Qur'oni karim, Hadis, pokiza nasl muhofazasi, Abdulloh ibn Muborak, Shayh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf, Imom G'azzoliy,*

"THE IMPORTANCE OF STUDYING THE SCIENCE OF LINEAGE AND DESCENT"

Annotation: *This article discusses the importance of lineage and descent in our sacred religion of Islam and its role in ensuring the peace and prosperity of families. In Islam, lineage (tribe, descendants) holds significant social and religious aspects, relating to an individual's origin, ancestry, family, and place in society. The Qur'an and Hadith highlight the distinct importance of lineage in a person's personal and religious life. The significance of lineage primarily helps each individual understand their position and responsibility.*

Lineage also plays a crucial role in strengthening the family system and maintaining respect and justice. In Islam, the family is considered the strong foundation of religion and society, and the correctness of lineage greatly impacts family relations, rights, and responsibilities.

Keywords: *The Science of Lineage and Descent, Qur'an, Hadith, preservation of pure lineage, Abdullah ibn Mubarak, Shaykh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf, Imam Ghazali.*

"Nasl-nasabning muhofazasi, adolat va insof bilan munosabat qilish uchun zarurdir. Bu, jamiyatning barqarorligini ta'minlash va insonlarning huquqlarini saqlashda juda muhimdir".

Abu Hanifa (r.a.)

Bu dunyoda insoniyat va jamiyat hayotini tartibga solish, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish hamda adolatni ta'minlash kabi ulkan maqsadlarni amalga oshirishda insonning kim ekanligini, o'z nasl-nasabini yaxshi bilishi, o'z ildizlarini yaxshi anglashi juda muhimdir. Ibn Xoldun o'zining mashhur "Muqaddima" asarida "insonlar jamiyati – zaruratdir" deb, jamiyatning hayotiy ahamiyatini chuqur ta'kidlaydi. Chunki inson o'zini kimligini tushunib, nasl-nasabini pokiza saqlashi kerak. Bizning yurtimiz esa asrlar davomida ko'plab olimlarni tarbiyalab, ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Shayhimiz Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari ham bu haqida chuqur fikr bildirganlar. Ular, nasl-nasabning pokligi va insonning o'zligini anglash, jamiyatni adolatli va barqaror qilishda eng asosiy omil ekanligini ta'kidlab, bunday qadriyatlarning avloddan avlodga o'tib borishini muhim deb bilishgan. Bu, nafaqat har bir insonning o'ziga bo'lgan hurmati, balki butun jamiyatning salohiyati va ahloqi asosidir. Yana bir suhbatlarida ham ta'kidlaganlaridek :

"Bu xalq buyuk xalq erishgan yutuqlarni yuqoriga ko'taradigan, hammaga faxr bo'ladigan yoshlarni tarbiyalashi kerak, ulug' bobolarimiz Imom Buhoriy, Imom Termiziy, Imom Zamahshariy kabi insonlar bizni yurtimizdan yana chiqishi kerak, bir marta shunday ulug'larni tarbiyalagan xalq ikkinchi marta tarbiyalashi oson, buni barcha tushunib yetishi lozim, bunga hamma harakat qilishi kerak, yoshlarimiz esa o'zlarini yoshlik deb atalmish buyuk ne'mat sohiblari ekanini tushunib yetishi bilan shukronalikni keltirgan bo'ladi va kelgusida yurtimizni yanada rivojlanishida ulkan hizmatlarga sabab bo'ladi".

Yuqoridagi so'zlardan shuni anglashimiz mumkinki, xalqimiz azaldan ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shib kelgan va ulardan qolgan boy ilmiy merosni keyingi avlodlarga to'g'ri va munosib tarzda yetkazish juda muhimdir. Bu jarayonda naslning pokligi alohida ahamiyat kasb etadi. Insonning pok nasl-nasabi, uning qalbida ajdodlaridan meros qilib olgan axloqiy qadriyatlarni va ilmga bo'lgan hurmatni saqlashga yordam beradi. Pok nasl, shuningdek, yosh avlodni o'zligini anglashga, ilmga intilish va uni rivojlantirishda qat'iyatli bo'lishga ilhomlantiradi. Natijada, bu kuchli asos bo'lib, kelajakda ilmga intiluvchi va yuqori axloqiy qadriyatlarni yuksaltirgan insonlar tarbiyalangan bo'ladi.

Abu Hurayra radhiyallahu anhu rivoyat qiladi:

«Nabiy sallallahu alayhi va sallam:

«Nasablaringizni o'rganing, u bilan sila-i rahm qilasiz. Zotan, sila-i rahm ahlg muhabbat, molning ziyodasi va ortdan asarini qoldirishdir», dedilar».

Nasabga ahamiyat berish farzandlarning haqqini himoya qilish deganidir. Albatta, bolalarning nafaqasi, meros olishlari, ularga homiy bo'lish kabi haqlarning barchasi nasabga bog'liqdir.

Darhaqiqat, bugungi kunda axloqiy va tarbiyaviy qadriyatlarni mustahkamlashda insonning pok nasl-nasabi muhim rol o'ynaydi. Aynan shu sababli, qadimdan xalqimiz o'z nasl-nasabini pokiza saqlashga, turli axloqsizliklardan asrashga intilgan. Ko'plab oilalarda bugun ham 7 ta ajdodlarning ismlarini va hayotlarini yosh avlodga o'rgatish an'anasini davom ettirmoqda. Bu nafaqat ajdodlarimizga hurmat ko'rsatish, balki ularning boy ilmiy merosini kelajak avlodlarga yetkazib, bugungi kunda ham o'zining ilm nurini tarqatish uchun ham

muhim asos bo'ldi. Bu orqali nafaqat tarixga, balki zamonamizdagi axloqiy qadriyatlarga ham hurmat shakllanadi, insonning o'zligini anglashga va hayotga to'g'ri yondashishga yordam beradi.

Shonli tariximizda nomi barcha Islom ilm-fanida dong' taratgan Abdulloh ibn Muborakning hayoti bizni o'ylantiruvchi va ilhomlantiruvchi misollar bilan to'la. Ularning oilasidagi bir voqea esa ko'plab yuraklarni hayratga solgan. Bu voqea Abdullohning ota-onasi bilan bog'liq. Abdullohning ota onasi oila qurgan yosh kelin kuyovlik vaqtlari edi. Qizning onasi haftada bir kelib qizidan xabar olib turardi. Beshinchi dafa kelishida qizining yig'lab turgani ustidan chiqdi. Ularning suhbatlari mana bunday bo'ldi.

- Nega yig'layapsan qizim?
- Tanlab topgan kuyovlaringiz hatto yuzimga ham qaramayapti.
- Tushunarli...

Jahl bilan uyiga kelgan ayol xo'jayini ishdan kelishini sabrsizlik bilan kutdi. Eri kelgach, avvalo ovqat suzdi. Ovqatlanib bo'lgach, sekin gap boshladi.

- Sultonzodalarni mensimasdan oddiy odamga qiz bergandingiz. U esa mana salkam qirq kundirki, qizimizning yuziga ham qaramabdi. Shunaqa zulm qilar ekan nega uylandi?

Qozi bir og'iz gapirmadi. Xuftondan so'ng Muborakni chaqirtirdi. U kelgach, qoziligiga borib baqirmadi, jaxlga minmadi. Musulmon kishi oldin sababini bilib, keyin tadbir qiladi. U ham masala mohiyatini bilish uchun kuyovidan oddiy savol so'radi.

- Nega shu vaqtgacha qizim bilan gaplashmasdan, yuziga ham qaramasdan zulm qilib kelyapsan?

-Ming bor uzur. Orada sal anglashilmovchilik bo'libdi. Siz qozisiz.

Ishonchli, shubhali taom yegansiz deymayman, ammo baribir sovg'a salom, turli ziyofatlar, hukmlar (janjalli vaziyat yechimlari) uchun olingan pullar shubhali bo'lishi mumkin. Shuning uchun men mana salkam qirq kundan beri halol luqma yedirypman. Tomirlaridan toza qon oqishi uchun. Alloh guvoh – men bu ishni solih farzand uchun qildim. Qozi lol qoldi. Yaratganning inoyati bilan kuyovni to'g'ri tanlaganiga yana bir bor amin bo'ldi. Oradan bir yil o'tib bu oilada Abdulloh dunyoga keldi..

Muborak Qur'oni Karimning Mumtaxana surasi 12-oyatida ham Payg'ambarimizga (s.a.v) mo'minlar bilan bay'at qilishda quyidagi muhim qadriyatlarni ta'kidlaydi:

وَلَا أُولَدَهُنَّ يَقْتُلْنَ وَلَا يَزْنِينَ وَلَا يَسْرِقْنَ وَلَا يَشْبَعْنَ بِاللَّهِ يُشْرِكْنَ لَا أَنْ عَلَىٰ يُبَايِعَنَّكَ الْمُؤْمِنَاتُ جَاءَكَ إِذَا النَّبِيُّ يَأْتِيهَا رَحِيمٌ غَفُورٌ اللَّهُ إِنَّ اللَّهَ لَهُنَّ وَأَسْتَغْفِرُ فَبَايِعُهُنَّ يَمَعُورُونَ فِي يَعَصِيَنَّكَ وَلَا رُجُلَهُنَّ وَأَيَّدِيَهُنَّ بَيْنَ يَفَرِّيَنَّهُ بِهِنَّ يَأْتِينَ

“ Ey payg'ambar, qachon sizning oldingizga mo'minalar kelishib, sizga o'zlarining Allohga biron narsani sherik qilmasliklariga, o'g'irlik qilmasliklariga, zino qilmasliklariga, (kambag'allik yoki sharmanda bo'lishdan qo'rqib) o'z bolalarini o'ldirmasliklariga, va qo'l-oyoqlari o'rtasida to'qib oladigan bo'xtonni qilmasliklariga (ya'ni farzandsizlik sababli o'z erlaridan ajralib qolmaslik uchun biron tashlandiq bolani topib, go'yo u qo'l-oyoqlari o'rtasidan chiqqandek, ya'ni o'zlari tuqqandek erlariga «Mana shu bola sendan bo'ldi», deb bo'hton qilmaslikka) hamda biron yaxshi ishda sizga itoatsizlik qilmasliklariga qasamyod qilsalar, siz ularning

qasamyodlarini qabul qiling va ular uchun Allohdan mag'firat so'rang! Albatta Alloh mag'firatli, mehribondir.”.

Ushbu oyat, insoniyatning barcha sohalarini himoya qilishga qaratilgan asosiy qadriyatlarni o'zida mujassam etadi. Ulardan biri zino qilmaslikdir, ya'ni inson o'z nasl-nasabini pokiza va muqaddas yo'llar bilan, Alloh taoloning shariatiga muvofiq tarzda nikoh orqali davom ettirishi kerak. Bu nafaqat jamiyatning axloqiy barqarorligini ta'minlash, balki naslni toza va shar'iy yo'l bilan saqlashni anglatadi. Allohning bu buyurigi, nafaqat bir odamning, balki butun insoniyatning qadriyatlari va yuksak axloqiga xizmat qiladi.

Bu qadriyatlar insonlarni adolat, inoyat va murosaga chaqiruvchi oliy prinsiplaridan biridir. Ular, jamiyatni barqaror, tinch va ahloki yuksak saqlash uchun zarur asos bo'ladi. Har bir masala, o'zining pokligini saqlashga, naslni asrashga va insoniyatni bir-biriga mehr-muhabbat va adolat bilan yashashga undaydi. Inson bor, u o'zining Xoliqiga va Roziqiga iltijo qilib, ko'zini quvontiruvchi, pokiza va barqaror farzandlar berishini so'raydi. Farzand, dunyoning eng qimmat va bebaho ne'matlaridan biri bo'lib, uning beshigi atrofida nafaqat ota-onaning yuraklari, balki butun bir jamiyatning orzu va umidlari to'planadi. Har bir farzand yangi hayotning boshlanishi, yangi umidlar va imkoniyatlar demakdir. Farzandlar nafaqat ota-onaning, balki jamiyatning kelajagi, uning axloqi, ilmiy va madaniy rivojlanishining asosi bo'ladi. Farzandning mehr-shafqat bilan tarbiya qilinishi, uning pokiza va ahloqli bo'lishi, nafaqat oila, balki butun dunyo uchun beqiyos qadriyatdir.

Payg'ambarlar, ular Allohning so'zini yerdan osmonlargacha yoygan, insoniyatni to'g'ri yo'lga boshlagan, barcha jamiyatlarga rahbarlik qilgan bo'lsalar ham, o'z Rabbidan farzand ato etishini so'rganlar. Chunki farzand, nafaqat ota-ona uchun, balki butun insoniyat uchun muborak bir ne'matdir, uning borligi dunyoda farovonlik va mehr-oqibatni shakllantiradi. Ulamolar, nasl-nasabning muhofazasi, adolat va insof bilan muomala qilishni va oilaviy munosabatlarda insofli saqlashni ta'kidlashadilar. Islom ulamolaridan Imam G'azzoli: “Nasl-nasabning adolat va insof bilan muomala qilish muhimdir. Bu, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni barqaror qilish, to'g'ri huquqni saqlash va jamiyatda birlashganlikni ta'minlash uchun muhimdir”, deganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1 <https://oliymahad.uz/43119> Yo'ldoshxodjayeva Xojiyaxon

2 Qur'oni Karim

3 “Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri” Shayh Abdulaziz Mansur “Munir” nashriyoti Toshkent 2021.

4 “Savdogarlar ustoz yoxud haqiqiy omad kaliti” Ahadquli Xolmuhammad o'g'li “Ilm Ziyozakat” nashriyoti Toshkent 2021.

5 “Sog'lom bola” Shayh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “HILOLNASHR” nashriyoti, Toshkent 2023.